**Bajarilishi ikki yilga mo‘ljallangan amaliy loyihalar mavzusi**

<table>
<tr><th colspan="3">“Iqtisodiyot fanlari” yo‘nalishi</th></tr>
<tr><th>№</th><th>Amaliy<br>loyiha mavzusi</th><th>Loyiha bajarilishidan kutilayotgan natija</th></tr>
<tr><td></td><td>Nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun inklyuziv turizmni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi (Navoiy viloyati misolida)<br></td><td>Tadqiqotning shakli: Nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun inklyuziv turizmni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi (Navoiy viloyati misolida) bo‘yicha amaliy loyiha bajariladi.<br>Ilmiy-tadqiqot natijalari:<br>- “to‘siqsiz muhit”ni yaratish va nogironlar uchun qulay infratuzilmani ta’minlash bo‘yicha texnik talablar va standartlar ishlab chiqiladi;<br>- “gapiruvchi shahar” loyihasi ishlab chiqiladi (muzeylar va tarixiy-me’moriy obidalar hududida foydalanish uchun elektron ovozli ilovalar va elektron matnlar yaratiladi);<br>- Navoiy viloyatining Xatirchi, Nurota va Qiziltepa tumanlarida inklyuziv turizmni rivojlantirish uchun yangi turistik marshrutlar va interaktiv turpaketlar yaratiladi;<br>- turizm sohasida ishlovchi xodimlarni nogironlar bilan muloqot qilish va xizmatlar ko‘rsatishda xavfsizlikni ta’minlash ko‘nikmalarini shakllantirish bo‘yicha malakasi oshiriladi;<br>- imo-ishora o‘zaro aloqa tilini biladigan gid-tarjimon va ekskursiya yetakchilarini tayyorlash bo‘yicha o‘quv modullari ishlab chiqiladi va seminar-treninglar tashkil qilinadi.<br>- “turizm hamma uchun” elektron platformasi va mobil ilovasi yaratiladi.<br>Natijalarni sinovdan o‘tkazish: Tadqiqot natijalari Bosh prokuratura tasarrufidagi tashkilotlarda sinovdan o‘tkaziladi.<br>Ilmiy natijalarni chop etish: Tadqiqot natijalariga intellektual mulk obyektlari uchun tegishli hujjatlar olinadi. Nufuzli ilmiy jurnallarda va Web of Science hamda Scopus ma’lumotlar bazasida indeksatsiyalangan jurnallarda ilmiy maqolalar chop etiladi.</td></tr>
<tr><td colspan="3">Jami yillik: bazaviy hisoblash miqdorining 1600 barobari</td></tr>
</table>

***Amaliy loyihaning umumiy moliyalashtirish hajmi bazaviy hisoblash miqdorining 3200 barobaridan oshmasligi va bajarish muddati ikki yilga mo‘ljallangan bo‘lishi shart***